

2021
VI SON



"ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ"
илмий электрон журнали

"ЛОГИСТИКА И ЭКОНОМИКА"
научно-электронный журнал

"LOGISTICS AND ECONOMY"
scientific-electronic journal

www.economyjournal.uz

Электрон журнал Олий Аттестация комиссиясининг миллий илмий нашрлари рўйхатига киритилган.

"ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ" илмий электрон журнали

2021 ЙИЛ
6 СОН

МУНДАРИЖА

Abdulloyev A. Do'stova A. Xamroyeva F. Hamrayev A.X.	<i>Turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish orqali turizm sohasini rivojlantirish masalalari</i>	6
Kadirova I.B.	<i>Ways of enhancing optimal capital structure in business entities</i>	13
Kenjayev I.G'. Ergasheva S. A'zamova M.	<i>Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalarning ahamiyati</i>	19
Kuvatova O.SH. Khoshimova SH.A.	<i>Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash amaliyotini takomillashtirish</i>	27
Qosimova S.K.	<i>Ways to improve the financing of investment activities of joint stock companies</i>	33
Rustamov M.S.	<i>"Daromadli ko'chmas mulk" bozorini baholashning o'ziga xos xususiyatlari</i>	38
Абдурахмонов И.Х.	<i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'llari</i>	45
Ахадов Б.А.	<i>Суғурта соҳасини ривожлантиришда суғурта воситачиларининг роли</i>	52
Бабаева Г.Я.	<i>Банк рискларини комплекс суғурталашнинг назарий асослари</i>	61
Бабахалов Н.Э.	<i>Структура и тенденции развития платежной системы узбекистана</i>	71
Бегматова Ш.А.	<i>Самарадорлик кўрсаткичлари ва темир йўл транспорти корхоналарида уларни аниқлашнинг айрим масалалари</i>	84
Болтаев А.С.	<i>Тадбиркорликда инновация ва креативликнинг аҳамияти</i>	91
Бустонов М.М.	<i>Фермер хўжаликларида солиқ ҳисобига оид сиёсатни такомиллаштириш</i>	100
Вохидов О.	<i>Ўзбекистонда иқтисодий ўсиш сифат омилларининг таъсирини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш истиқболлари</i>	107
Ганиев А.Н.	<i>Ўзбекистон банк тизими ресурс базасининг амалдаги ҳолати таҳлили</i>	117
Гофуров Ж.Ж.	<i>Банк тизимининг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш механизмлари</i>	124
Дўстов Ф.И.	<i>Синдикатлаштирилган кредитлашнинг хориж тажрибаси</i>	131
Жахонгиров И.Ж.	<i>Инновацион фаолиятни молиялаштиришнинг хориж тажрибалари</i>	136
Исмоилова К.У.	<i>Соғлиқни сақлаш тизимини молиялаштириш моделлари бўйича хориж тажрибаси</i>	142
	<i>Определяющие факторы валютного курса</i>	149

Исраилова Д.К.	Методика анализа миграционных процессов	153
Камилов Б.У. Турсунова М.Х.	Развивающийся надзор за цифровой трансформацией и технологическими инновациями	157
Каримқулов Ж.И. Ҳошимов Ж.Р.	Миллий иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб қилишни ривожлантириш йўналишлари	163
Қосимов М.А.	Ўзбекистон Республикаси транспорт-логистика тизими самарадорлигини ошириш йўллари аниқлашда комплекс ёндашув	172
Нормурзаев У.Х.	Давлат солиқ органларида солиқ имтиёзлари ҳисобини юритилиши ҳамда солиқ имтиёзларини таҳлил қилиш масалалари	179
Саттарова Н.Т.	Ўзбекистонда савдо хизматларини ривожлантиришнинг илмий методологик асослари	189
Султонмуродов Б.Б.	Банковские продукты и услуги как инструмент развития системы кредитования коммерческих банков	196
Тилаков Н.М.	Ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтган олий таълим муассасасининг бюджетдан ташқари маблағлари бўйича молиявий ҳисоботлар таҳлили	203
Тоғаев Ж.Х. Жураев М.Н. Саматов Р.Ғ.	Парето тамойили асосида омбор майдонини оптималлаштириш	210
Турсунқулов И.А.	Корхоналарда бошқарув механизмнинг самарадорлиги	216
Туробов Ш.А. Рашидов Р.И.	Аҳоли бандлигини таъминлашда уй хўжаликлари тадбиркорлигининг аҳамияти	224
Турсынов А.Ж.	Қишлоқ хўжалигининг иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг долзарблиги ҳамда мавжуд муаммолар	230
Уктамов Х.Ф.	Кимё саноати корхоналарининг молиявий-иқтисодий барқарорлигини таъминлаш масалалари	235
Халиков Р.Б. Турсунова М.Х.	SWOT-анализ финансовых технологий в банковской отрасли	244
Хидирова Г.Р. Косимова Ш.М.	Ички туризм хизматларини шаклланишида талаб ва таклиф ўртасидаги мутаносибликни баҳолаш	250
Хожаев А.С.	Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари маблағлар бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари	263
Холматов С.Н.	Ипотека суғуртасининг хорижий талқини	271
Худойқулов Х.Х.	Акциядорлик жамиятларининг капитал қиймати таъсир этувчи омиллар ва уларни эконометрик моделлаштириш	279
Шермухамедов А.А. Жураев М.Н. Марупов М.М.	Автотранспорт воситаларини маршрутларга тақсимлаш орқали транспорт-логистик хизматларни бошқариш	287
Шомансурова З.А.	Корхоналарда инновацион лойиҳаларни молиялаштиришда ахборот коммуникация технологиялардан фойдаланиш	294
Эргашев А.	Тижорат банклари ресурслари ва уларни бошқаришнинг айрим жиҳатлари	302



TURISTIK KLASTERLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ORQALI TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Abdulloyev A., Do'stova A., Xamroyeva F.

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada turizm sohasining mamlakat milliy iqtisodiyotidagi o'рни va ahamiyati yoritilgan. Turizm sohasi rivojini ta'minlashda turistik klasterlar faoliyatini tashkil etishning zaruriyati tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada turistik klasterlar faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: turizm, klaster, turistik klaster, integratsiya, strategiya, raqobat, raqobatbardoshlik, turistik mahsulot.

ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF TOURISM THROUGH THE ORGANIZATION OF TOURISTIC CLUSTERS

Abdulloyev A., Do'stova A., Xamroyeva F.

Bukhara State University

Annotation: The article covers the role and importance of tourism in the national economy of the country. The need to organize the activities of tourist clusters in ensuring the development of the tourism industry has been investigated. The article also shows the priority directions of the development of the activities of tourist clusters.

Key words: tourism, cluster, touristic cluster, integration, strategy, competition, competitiveness, touristic product.

1. Kirish.

Globalizatsiya va integratsiya jarayonlarining tobora tezlashib borayotganligi sharoitida turizm jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes turlaridan biri bo'lib, u bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi va dunyoning ko'pgina mamlakatlarida shiddat bilan rivojlanib borayotgan strategik tarmoqqa aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda ham turizm milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda ham turizm sohasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish" bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilangan (Farmon, 2017).

Hozirgi zamonaviy sharoitlarda turizm sohasining taraqqiyotini ta'minlashda "zamonaviy innovatsiya va iqtisodiy o'sishning sifat omili" bo'lgan "klaster" lar faoliyatini samarali shakllantirish obyektiv zaruriyat kasb etmoqda. Taraqqiyot yo'lidan odimlayotgan turizm sohasini rivojlantirishda klaster mexanizmidan foydalanish eng asosiy omillardan hisoblanadi.

"Har qanday darajada integratsion jarayonlar xo'jalik yuritishning muayyan shakllari orqali ro'yobga chiqariladi. Jahon xo'jaligida bu transmilliy kompaniyalar bo'lsa, milliy iqtisodiyot darajasida pirovard mahsulot va xizmatlar yaratishda ishtirok etuvchi hududiy yoki tarmoqlararo kesimdagi "yagona texnologik zanjir" ga bog'langan barcha ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi) larni o'z ichiga olgan "klaster" lardir. Iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy usullari yetarli darajada samaradorlikni va raqobatbardoshlikni

ta'minlay olmayotgan hozirgi davrda innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tish yangi iqtisodiy tuzilma "klaster" larni joriy etishni taqozo etadi" (Jo'rayev, Hamidov, 2019).

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi klasterlarning zamon talablariga mos raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish, investitsion faollikni va jozibadorlikni oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va pirovardida esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda o'rni yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Turizm sohasini rivojlantirishda klaster mexanizmidan foydalanishning ahamiyati va zaruriyatini o'rganish maqsadida sohaga oid adabiyotlarni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

2. Adabiyotlar sharhi.

Dastlab klasterli yondashuv sanoat ishlab chiqarishida qo'llanilgan bo'lib, Porter (1993) mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishda sanoat klasterlarini tashkil etish g'oyasini ommalashtirgan. Bugungi kunda klasterlar ko'plab tarmoqlarda faoliyat ko'rsatmoqda, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqalar.

Milliy iqtisodiyotda klaster mexanizmidan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Aholining samarali bandligini ta'minlab, turmush sifati va farovonligini oshirish;
- Qulay investitsion muhitning shakllanishi va innovatsion faoliyatning rivojlanishini rag'batlantirish;
- Ishlab chiqariladigan mahsulotlar xarajatlarini kamaytirish hisobiga mahsulotni sifat jihatdan yaxshilash, natijada esa tovarlar raqobatbardoshligiga erishish;
- Boshqaruv qarorlarining optimallasuvi, kadrlar infratuzilmasining yaxshilanishi hamda korporativ madaniyat darajasining oshishi;
- innovatsiyalarni joriy qilish hisobiga mintaqaviy va jahon bozorlarida mamlakatning nufuzi oshib, raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash va boshqalar.

Iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib borayotgan bugungi sharoitlarda turizm sohasini rivojlantirishda turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish masalasi xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha yoritilmoqda.

Jumladan, Mitrofanovanning (2010) fikricha, Mintaqaviy turizm klasteri tuzilmasi turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, ular bilan bog'liq faoliyatni, boshqaruv va muvofiqlashtiruvchi organlarni, jamoat tashkilotlarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oladi.

Danilenko (2014) ham yuqorida keltirilgan ta'rifni to'ldirgan holda turistik klasterlarni turizm sohasi taraqqiyotini ta'minlaydigan strategik yo'nalish sifatida belgilab, turistik klasterlarni turizm destinatsiyasi doirasidagi strategik tashkilotlararo tarmoq ekanligini qayd etadi.

Turizm sohasining jadal rivojlanishida turistik klasterlarning ahamiyati to'g'risida O'zbekistonlik olimlar ham izlanishlar olib borishmoqda. Jumladan, professor Navro'z-zoda (2017) klasterlar turizm hamkorlik va raqobatni uyg'unlashtiruvchi institutsional vosita sifatida ekanligini ta'kidlab, turizm sohasida klasterlarning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi umumiy qonuniyatlar asosida amalga oshishi hamda ushbu sohada namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlangan. Klasterlarning mohiyati uni tashkil etadigan o'zaro bog'liq firmalarning qo'shilgan qiymat zanjirida o'z aksini topadi, deya ko'rsatgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishida turizm sohasining rivojini ta'minlashda klaster mexanizmidan foydalanish bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar tadqiq etildi. Mavzuga oid adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar ham nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan o'rganildi hamda taqqoslash va umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, soha taraqqiyotini ta'minlashda turistik klasterlar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar shakllantirildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega mamlakat hisoblanadi. Yurtimizning Buyuk Ipak yo'li ustida joylashganligi, qulay tabiiy-iqlim sharoit hamda boy tarixiy-madaniy merosga ega ekanligi, turizm sohasini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ham ichki ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Bugungi zamonaviy sharoitlarda mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi samarali bandligini ta'minlash, shuningdek, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini taqdim etmoqda.

Turistik klasterlar esa mintaqadagi turistik xizmatlar bilan bog'liq turli sektorlardagi korxonalarini, masalan, turoperatorlarni, mehmonxonalarini, umumiy ovqatlanish korxonalarini, esdalik sovg'alarini ishlab chiqaruvchilarni, transport korxonalarini va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Turistik klaster deganda, turistik mahsulotni ishlab chiqarish, reklama qilish va sotish, shuningdek turizm va rekreatsiya xizmatlari bilan shug'ullanadigan o'zaro bog'liq korxonalar va tashkilotlarning bitta cheklangan hududida to'planishi tushuniladi.

Turistik klasterlarni yaratishdan maqsad sifatida turizm bozorida hududning raqobatbardoshligini oshirish, shu jumladan: klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ma'lum bir hududda turistik klasterlarni tashkil etish mazkur hududning imidjini shakllantirishga ham yordam beradi.

Turizm sohasida klasterlarning yaratilishi hududning xalqaro maydondagi sayyohlik jozibadorligini oshiradi hamda ichki va tashqi turizmni rivojlantiradi. Turistik klasterlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi natijasida turistik xizmatlarning raqobatbardoshligi oshib, zamonaviy biznesning taraqqiyotini ham ta'minlaydi.

Turizmni rivojlantirishda klasterli yondashuvning asosiy xususiyati tarmoq korxonalarini birlashtirish bo'lib va bu orqali nafaqat turizmning samaradorligini, balki ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshiradi.

Dastlab, turistik biznes korxonalari integratsiyasining asosiy maqsadi kuchli raqobat sharoitida omon qolish imkoniyatlarini oshirish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda klaster shakllanishi innovatsion faoliyatning namoyon bo'lishi uchun afzalliklar yaratish, sifat va raqobatbardoshlikning oshirishini ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

Turistik klasterlarning samarali faoliyati xorijiy valyuta tushumining ortishi, yangi ish o'rinlarini ta'minlash, infratuzilmaning rivojlanishini rag'batlantiradigan turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi nufuzini oshirib, raqobatbardosh turistik kompleksning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab hududlarida turizmga ixtisoslashgan klasterlar faoliyati kundan-kunga takomillashib bormoqda. Jumladan, Osiyo turistik mintaqasi turistik klasterlarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, shuningdek, klasterlarni rivojlantirish tashabbusi davlat hokimiyati organlari tomonidan kelganda Yevropa mintaqasi tajribasidan faol foydalanadi. Klaster tashabbuslariga davlatning aralashuvi, ularning tashqi bozorlarda kengayishiga yordam berish istagi tufayli yuzaga keladi.

Osiyo mamlakatlarida turistik klasterlarni rivojlantirish yangi yo'nalish hisoblanib, shuning uchun ular xalqaro turizm bozorida yetakchilik uchun faol kurash olib borishi va raqobatdosh mahsulot yoki xizmatni yaratishi lozim. Tailand va Hindiston sayyohlik klasterlarini yaratishda hududning madaniy va tarixiy salohiyatidan foydalanadi hamda Xitoy esa o'z faoliyatini tibbiy va rekreatsion tuzilmalarni targ'ib qilishga qaratadi.

Yaponiyaning Kitakyushu turistik klasteri davlat hokimiyati organlarining faol ishtirokida amalga oshirilmoqda. U robototexnika, bioinformatika, nanotexnologiya, bio-ishlab chiqarish va boshqalar kabi zamonaviy zamonaviy yuqori texnologik sohalarning o'zaro ta'siriga qaratilgan. Amaliy fan va texnologiyalarni rivojlantirishda turli xil jahon darajasidagi universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari Kitakyushu ilmiy parki bilan hamkorlik qilmoqda.

Yaqinda dunyoning boshqa sayyohlik mintaqalarida ham turistik klasterlarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Afrika mamlakatlari ushbu sohada faol faoliyatni boshladilar, masalan, Janubiy Afrika davlat siyosati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari yordamida turizm klasterlari rivojlanib borayotgan yetakchi mamlakatga aylanib bormoqda (Nagornaya, Shevsova, 2019).

Quyidagi 1-jadvalda turistik klasterlarni shakllantirish bosqichlari hamda mazkur bosqichlarda amalga oshiriladigan vazifalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan.

1-jadval

Turistik klasterlarni shakllantirish bosqichlari va xususiyatlari¹

Bosqichlar	Xususiyatlar
Birinchi bosqich	<ul style="list-style-type: none"> - belgilangan hududning turistik klasterga mos kelish yoki mos kelmaslik xususiyatlari o'rganiladi; - Mazkur hududda noyob turistik resurslar hamda diqqatga sazovor joylar mavjud ekanligi tahlil qilinadi; - Infratuzilma va tadbirkorlik subyektlari hamda ularning o'zaro aloqlari tahlili amalga oshiriladi; - Klasterda davlat va notijorat tashkilotlarining mavjudligi va ularning o'zaro aloqasi aniqlanadi.
Ikkinchi bosqich	<ul style="list-style-type: none"> - Klasterning geografik tuzilishi hamda chegaralari belgilanadi; - Chegaralar belgilangandan keyin uning elementlari, ya'ni klasterga birlashadigan korxonalar, infratuzilma obyektlari hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar aniqlaniladi; - Tanlangan elementlar atroflicha tahlil qilinadi, shuningdek, turistik klasterning o'ziga xosligi hamda xususiyatlari ham aniqlanadi.
Uchinchi bosqich	<p>Mazkur bosqichda klaster tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda ichki hamda tashqi tahlilni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ichki tahlilda klasterdagi mavjud kamchilik va muammolar o'rganiladi hamda klaster subyektlarining o'zaro aloqalarining muvofiqligi yoki nomuvofiqligi tahlil qilinadi; - Tashqi tahlilni amalga oshirishda turistik klasterning ishlashi ta'sir etadigan barcha omillar, jumladan, siyosiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar tahlil qilinadi; - Mazkur bosqichda yana quyidagilarga urg'u berish kerak: mintaqaning kadrlar salohiyati, turistik xizmatlarni litsenziya va sertifikatsiyalash jarayonlari va boshqalar.

Ilmiy adabiyotlarda turistik klasterning tarkibiy tuzilishi bir nechta bo'limlardan tashkil topishi bayon etilgan. Bular qatoriga asosiy bo'lim va asosiy bo'limning samarali faoliyatini ta'minlaydigan qo'shimcha bo'limlar kiradi. Asosiy bo'lim, turistik klasterning yadrosi bo'lib, uning tarkibiga turoperatorlar, turagentliklar, mehmonxona va dam olish maskanlari kiradi. Qo'shimcha bo'limlarni esa yordam beruvchi, xizmatlarni yetkazuvchilar, resurslar, moliyaviy-huquqiy bo'lim kabilar tashkil etadi. Yordam beruvchi bo'lim tibbiyot, ta'lim, axborot, sanoat, transport-kommunikatsiya kabi tarkibiy qismlarni o'zida birlashtirsa, xizmatlarni yetkazuvchilar bo'limi esa ovqatlanish, ijara xizmatlari, savdo, sovg'alar, aloqa kabi elementlardan tarkib topgan. Resurslar bo'limini diqqatga sazovor joylar, sport mashg'ulotlari, ov, milliy madaniyat, urf-odat va qadriyatlar, yovvoyi tabiat, qo'riqxonalar va boshqalar tashkil etadi. Moliyaviy huquqiy bo'lim esa turistik klasterlarni moliyaviy ta'minlaydi, huquqiy asoslarini shakllantiradi. Mazkur bo'limlarning o'zaro birgalikdagi faoliyati turistik klasterlarning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Quyidagi jadvalda turizm sanoatida klasterlashtirish taqdim etadigan ba'zi afzallik va imkoniyatlar ko'rsatilgan (2-jadval).

¹ Ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar umumlashtirildi

**Turizm bozorida klasterlashtirish jarayoning tavsifi hamda afzalliklari
(Nordin,2003).**

Tavsifi	Afzalliklari
Texnik kompetensiyalarning umumiy massasi, bozor to'g'risida axborot, hamda inson va moliyaviy resurslarni yaratish orqali tashkilotlar kutilmagan holatlarga tayyor bo'ladilar	Tavakkalchilik va noaniqlikni kamaytirish
Katta tezkor kuch va sherikchilikka qo'shilish tufayli raqobatchilarning strategik resurslarga bo'lgan ruxsati cheklangan	Raqobatda ishtirok etish yoki taqiqlash
Hamkorlik ruhi ixtisolashtirishning keng taqsimlanishiga imkon beradi. Ichki raqobatning pastligi tufayli bozorning to'yinmagan qismlarida ko'plab joy qoladi.	Maqsadli iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari
Hamkorlikda faoliyat yuritayotgan korxonalar katta bozorlarda harakat qilishi mumkin.	Samarali bozor nazorati
Bilimlarning aylanishi texnologiyalarning tarqalishiga va yangi tezkor uslublarni yaratishga imkon beradi Brendlar korxonalar va destinatsiya miqyosida mijozlar va ta'minotchilar nazarida mustahkamlanadi Hamkorlikdagi faoliyat mahsulot sifatini va boshqaruv malakalarini oshirishga intiluvchi korxonalar o'rtasida sog'lom raqobatni yaratadi.	Texnologik va tashkiliy nou-xauning oshishi Imidj va mashhurlikning mustahkamlanishi Mahsulot sifati va jarayonning samaradorligi nuqtai nazaridan korxonaning o'sishi
Ta'minotning integratsiyalashgan va muvofiqlashtirilgan tizimi destinatsiya uchun samarali marketing aktsiyasini ta'minlaydi. Sherikchilik va funktsiyalar taqsimoti yangi innovatsion mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini yangilash va yangi ijodiy ko'nikmalarni hosil qilishga imkon beradi.	Samarali marketing uchun shart-sharoitlar Sinergiyaning yaratilishi
Turizm va iqtisodiy faoliyatning barcha turlari orasidagi kuchli o'zaro bog'liklik erishilgan nafililiklarni butun hududiy iqtisodiy tizim bo'ylab tarqalishiga imkon beradi.	Mintaqaviy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir /mahalliy rivojlanish
Klasterlar atrof-muhitning muhofazasi va hududning barqaror rivojlanishiga ulkan hissa qo'sha olishini ta'kidlash lozim.	Turizmning barqaror rivojlanish salohiyati

O'zbekistonda ham turistik klasterlarni yaratish va rivojlantirish imkoniyatlari nihoyatda yuqori. Mamlakatimizning tabiiy iqlimi va geografik joylashuvi juda katta omil bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, hududlarda ulkan salohiyat va foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Turistik klasterlar turizm subyektlarini, shu jumladan, turli korxonalar, sohaga yaqin ko'plab sanoat obyektlarini birlashtirib, ichki va tashqi turizmning rivojlanishini ta'minlaydi, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Turizm sohasida klasterlarning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi umumiy qonuniyatlar asosida amalga oshishi hamda ushbu sohada namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlangan bo'lib, klasterlarning mohiyati uni tashkil etadigan o'zaro bog'liq firmalarning qo'shilgan qiymat zanjirida o'z aksini topadi. Qo'shilgan qiymat esa ma'lum korxonaning faoliyati

natijasida mahsulot va xizmatlar qiymatiga qo'shgan qismidir. Ishlab chiqarish faoliyatining barcha shakli qo'shilgan qiymatni yaratadi. Aniq ketma-ketlikda amal qilish natijasida ular tashkilot miqyosida qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantiradilar. Raqobat ustunligiga erishish uchun xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining qo'shilgan qiymat zanjiri bilan birga, xizmatlarni yetkazib beruvchi hamda iste'molchilar bilan bog'lovchi tashqi zanjirlarni ham optimallashtirishi lozim.

Turistik klasterlarda qo'shilgan qiymatlar tizimi to'rt turdagi qo'shilgan qiymat zanjirlarini qamrab oladi:

- xizmatlarni yetkazib beruvchilar (transport kompaniyalari);
- joylashtirish muassasalari va boshqa qo'shimcha xizmatlar;
- turistik mahsulotlarni sotish kanallari (initsiativ va reseptiv turoperatorlar, turagentlar, elektron bronlash tizimlari hamda turistik portallar);
- iste'molchi(turist)lar.

Turistik klasterning raqobatbardoshligi va jozibadorligi qo'shilgan qiymat zanjirining har bir bo'g'inida amalga oshayotgan jarayonlar algoritmi va dinamikasini uzluksiz tadqiq qilishni taqozo etib, klasterni tashkil etuvchi subektlarga barqaror o'sishning eng optimal yo'llarini ishlab chiqishga ko'maklashadi.

5. Xulosa va takliflar.

Turistik klasterni yaratishdan maqsad sifatida turizm bozorida hududning raqobatbardoshligini oshirish, shu jumladan: klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ma'lum bir hududda turistik klasterlarni tashkil etish mazkur hududning imidjini shakllantirishga ham yordam beradi.

Iqtisodiyotni transformatsiya qilishning bugungi bosqichlarida turizm xizmatlari bozori faoliyatini kengaytirish tobora obyektiv ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunda turistik xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi korxonalar samaradorligini oshirish, ko'rsatiladigan xizmatlar va ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda zamonaviy innovatsiya hamda iqtisodiy o'sishning sifat omili hisoblangan klaster mexanizmi dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Chunki turistik klasterlar turistik majmuadan farqli ravishda mintaqaning rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan tomonlarning yanada kengroq doirasini birlashtiradi. Ya'ni turistik klaster, turistik tarmoqlar bilan cheklanmay, hamkorlikdagi faoliyati mintaqaning turizm sohasini rivojlantirishga hamda uning turistik jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan davlat organlari, ta'lim va ilmiy muassasalarni, infratuzilma xizmatlarini ham o'z ichiga oladi.

Turizm xizmatlari bozorining kengayishida turistik klaster butun mintaqaning, turizmning va har bir ishtirokchining rivojlanishiga yo'naltirilganligi bilan o'zining obyektiv ahamiyatini namoyon etadi. Klaster ishtirokchilariga nisbatan klasterni tashkil etish tamoyillari va maqsadlarini inobatga olgan holda "manfaatdor tomonlar" degan tushunchani qo'llash maqsadga muvofiqdir. Klaster markaziy boshqaruv organiga ega emas, ammo barcha ishtirokchilarni yagona maqsad – sinergiya samarasi orqali o'zini rivojlantirish – sari birlashtiradi.

Xulosa o'rnida aytganda, O'zbekiston Respublikasi hududlarida turistik klasterlarni shakllantirishning normativ-huquqiy asosini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish turizm bozori rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadbirlar turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish orqali hududiy turizmni tizimli rivojlantirish konsepsiyasi negizida amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, turizm bozorida faoliyat yuritishning qulay iqtisodiy muhitini yaratish ushbu rivojlanishning asosiy katalizatori bo'lib xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/Reference:

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son. / Decree (2017) No. PF-4947 of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "On the Action Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan".

Jo'rayev T.T., Hamidov M.E. (2019) "O'zbekistonda agrosanoat klasterlarining rivojlanishi va ularning qishloq xo'jaligi taraqqiyotida tutgan o'rni". "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2. / Jo'rayev T.T., Hamidov M.E. (2019) "Development of

agro-industrial clusters in Uzbekistan and their role in the development of agriculture". Scientific electronic journal "International Finance and Accounting". № 2.

Navruz-Zoda B.N., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. (2017) Turistik hudud raqobatbardoshligi [Matn]: Monografiya \ Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 156 b. / Navruz-Zoda B.N., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. (2017) Competitiveness of the tourist area [Text]: Monograph \ Bukhara: "Sadridin Salim Bukhari" Durдона Publishing House, 156 p.

Nordin, S. (2003). *Tourism Clustering & Innovation: Paths to Economic Growth & Development*, European Tourism Research Institute, MID-Sweden University, Osternund, Sweden P19, Available online: www.etour.se/download/ Accessed on 20th May 2014.

Даниленко Н. Н., Рубцова Н.В. (2014) Сравнительный анализ туристских кластеров в регионах Прибайкалья: роль сотрудничества как фактора развития. ЭКОНОМИКА РЕГИОНА № 2. / Danilenko N. N., Rubtsova N. V. (2014) Comparative analysis of tourist clusters in the regions of the Baikal region: the role of cooperation as a development factor. REGIONAL ECONOMY № 2.

Митрофанова А. (2010) Региональный туристский кластер как форма пространственной организации туризма (на примере Калининградской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата географических наук. Калининград./ Mitrofanova A. (2010) Regional tourism cluster as a form of spatial organization of tourism (on the example of the Kaliningrad region). Abstract of the dissertation for the degree of candidate of geographical sciences. Kaliningrad.

Нагорная М. С., Шевцова В.В. (2019) Зарубежный опыт кластерной модели управления в сфере туризма // Управление в современных системах. № 1 (21). – С. 7-13. / Nagornaya M.S., Shevtsova V.V. (2019) Foreign experience of a cluster management model in the field of tourism // Management in modern systems. No. 1 (21). - P. 7-13.

Портер М. (1993) Международная конкуренция. - М., Международные отношения. / Porter M. (1993) International competition. - M., International relations.

Шильченко Т.Н. Перспективы развития туристских кластеров в РФ // Вестник ТИУиЭ. 2015. № 1 (21). С. 65–70. / Shilchenko T.N. Prospects for the development of tourist clusters in the Russian Federation // Bulletin of TIUE. 2015. No. 1 (21). pp. 65–70.